



UDK: 334.722-055.2:17.022.1

Umidaxon MAQSUMOVA,

Katta o'qituvchi, PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

E-mail: u.maksumova81_fdu@mail.ru, ORCID: 0009-0006-6050-2098

FarDU professori, falsafa fanlari doktori B.G'aniyev taqrizi asosida

YANGI O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AKSIOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning aksiologik asoslari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Ayollar tadbirkorligining inson qadrini yuksaltirish, iqtisodiy erkinlikni ta'minlash, gender tengligini mustahkamlash hamda ijtimoiy adolatni qaror toptirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot davomida aksiologik yondashuv asosida ayollar tadbirkorligining zamonaviy jamiyatdagi qadriy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ayollar iqtisodiy faolligini oshirishga ta'siri hamda tadbirkorlik faoliyatining ma'naviy va ijtimoiy mazmuni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Aksiologiya, qadriyat, ayollar tadbirkorligi, iqtisodiy erkinlik, inson qadri, gender tengligi, ijtimoiy adolat, Yangi O'zbekiston.

АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье с социально-философской точки зрения исследуются аксиологические основания развития женского предпринимательства в условиях Нового Узбекистана. Особое внимание уделяется роли женского предпринимательства в укреплении человеческого достоинства, обеспечении экономической самостоятельности женщин, продвижении гендерного равенства и утверждении принципов социальной справедливости. На основе аксиологического подхода раскрывается ценностное значение предпринимательской активности женщин в современном обществе. Кроме того, анализируется влияние проводимых в Новом Узбекистане реформ на расширение экономических возможностей женщин, а также рассматриваются социальные и духовно-нравственные аспекты предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: Аксиология, ценности, женское предпринимательство, экономическая свобода, человеческое достоинство, гендерное равенство, социальная справедливость, Новый Узбекистан.

AXIOLOGICAL FOUNDATIONS OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

This article examines the axiological foundations of women's entrepreneurship development in the context of New Uzbekistan from a socio-philosophical perspective. Particular attention is given to the contribution of women's entrepreneurial activity to enhancing human dignity, fostering economic independence, promoting gender equality, and strengthening social justice. Using an axiological approach, the study reveals the value-based significance of women's entrepreneurship within contemporary society. Furthermore, it analyzes the impact of ongoing reforms in New Uzbekistan on increasing women's economic participation and explores the social and moral dimensions of entrepreneurial activity.

Key words: Axiology, values, women's entrepreneurship, economic freedom, human dignity, gender equality, social justice, New Uzbekistan.

Kirish. XXI asrda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biriga aylandi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ayollarning biznes faoliyatidagi ishtiroki iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish, kambag'allikni kamaytirish va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan ayollar tadbirkorligini faqat iqtisodiy kategoriya sifatida emas, balki muayyan qadriyatlar tizimi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etish zarur.

Yangi O'zbekistonda inson manfaatlari, ijtimoiy adolat va gender tengligi tamoyillariga asoslangan taraqqiyot modeli shakllanmoqda. Bu esa ayollarning iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularni biznes va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish uchun qulay sharoit yaratmoqda. So'nggi yillarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari, imtiyozli kreditlar va institutsional mexanizmlar ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Biroq ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning muvaffaqiyati faqat iqtisodiy omillar bilan belgilanmaydi. Ushbu jarayonning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy asoslarini tashkil etuvchi qadriyatlar tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur tadqiqotning maqsadi ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning aksiologik asoslarini aniqlash va ularning Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ayollar tadbirkorligining aksiologik mohiyati. Aksiologiya qadriyatlar haqidagi ta'limot sifatida inson faoliyatining mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Tadbirkorlik faoliyati ham iqtisodiy foyda olishdan tashqari, muayyan qadriyatlarini ro'yogba chiqarish vositasi hisoblanadi.

Ayollar tadbirkorligi shaxsning o'z salohiyatini namoyon etishi, iqtisodiy mustaqillikka erishishi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishining muhim shaklidir. Shu

ma'noda u inson qadrini ulug'lashga xizmat qiluvchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Nemis faylasufi Max Scheler qadriyatlarini inson faoliyatini boshqaruvchi ma'naviy mezonlar sifatida talqin qilgan[1]. Uning fikricha, iqtisodiy munosabatlar ham axloqiy va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgandagina ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Ayollar tadbirkorligining aksiologik asosini quyidagi qadriyatlar tashkil etadi:

inson qadrini ulug'lash;
iqtisodiy erkinlik;
ijtimoiy adolat;
gender tengligi;
mas'uliyat;
innovatsion tafakkur;
mehnatsevarlik;
oilaviy farovonlik.

Mazkur qadriyatlar ayollarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi muhim ma'naviy omillar hisoblanadi.

Inson qadri va iqtisodiy erkinlik. Yangi O'zbekiston taraqqiyot modelining markazida inson qadri tamoyili turadi. Inson qadrini ta'minlashning muhim shartlaridan biri esa iqtisodiy mustaqillikdir.

Iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan ayol o'z hayotiy strategiyasini mustaqil belgilash, oilaviy va ijtimoiy qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa uning jamiyatdagi mavqeiini mustahkamlaydi.

Amartya Sen rivojlanishni inson imkoniyatlarini kengaytirish jarayoni sifatida baholaydi[2]. Uning fikricha, insonning iqtisodiy faoliyatdagi erkinligi umumiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichidir. Ushbu yondashuv ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Ayollar tadbirkorligi:
iqtisodiy faolligni oshiradi;
oila daromadlarini ko'paytiradi;
kambag'allikni qisqartiradi;
yangi ish o'rinlari yaratadi;
inson kapitalini rivojlantiradi.

Shu sababli ayollar biznesini qo'llab-quvvatlash inson qadrini ta'minlashning amaliy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Gender tengligi va tadbirkorlik. Gender tengligi zamonaviy demokratik jamiyatlarning asosiy qadriyatlaridan biridir. Ayollar va erkaklar uchun teng iqtisodiy imkoniyatlar yaratish ijtimoiy adolatning muhim ko'rinishi hisoblanadi.

Tarixan shakllangan stereotiplar ko'plab jamiyatlarda ayollarning iqtisodiy faolligini cheklab kelgan. Zamonaviy jamiyatlarda esa bu cheklovlarni bartaraf etish ustuvor vazifaga aylangan.

Simone de Beauvoir ayollarning iqtisodiy mustaqilligi ularning haqiqiy erkinligi uchun asos bo'lishini ta'kidlaydi[3]. Ayolning iqtisodiy jihatdan faol bo'lishi uning shaxs sifatida o'zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yangi O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan siyosat natijasida ayollarning biznesdagi ulushi tobora ortib bormoqda. Bu esa iqtisodiy munosabatlarda tenglik va adolat tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Milliy qadriyatlar va ayollar tadbirkorligi. O'zbek xalqining tarixiy taraqqiyotida mehnatsevarlik, halollik, tadbirkorlik va hamkorlik muhim qadriyatlar sifatida shakllangan. Ushbu qadriyatlar bugungi kunda ham iqtisodiy rivojlanishning muhim ma'naviy omillari hisoblanadi.

Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy jamiyat taraqqiyoti fuqarolarning ezgu maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyati bilan bog'liqligini ta'kidlagan[4]. Tadbirkorlik ham

inson va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi faoliyat turi sifatida talqin qilinadi.

Ayollar tadbirkorligi milliy qadriyatlarining zamonaviy iqtisodiy shaklda namoyon bo'lishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, oilaviy biznes, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish va innovatsion loyihalar orqali ayollar iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning faol subyektiga aylanmoqda.

Raqamli transformatsiya va yangi qadriyatlar. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ayollar tadbirkorligida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Elektron tijorat, masofaviy xizmatlar va onlayn platformalar ayollarning biznes faoliyatini kengaytirmoqda.

Bu jarayon quyidagi yangi aksiologik qadriyatlarining shakllanishiga olib kelmoqda:

kreativlik;
innovatsion tafakkur;
raqamli madaniyat;
moslashuvchanlik;
o'zini o'zi rivojlantirish.

Mazkur qadriyatlar ayollar tadbirkorligini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy bilishning aksiologik, tizimli, qiyosiy va dialektik metodlaridan foydalanildi.

Aksiologik metod yordamida ayollar tadbirkorligining qadriyatlar tizimidagi o'rni va mazmuni tahlil qilindi. Tizimli yondashuv orqali iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarining o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida xorijiy va milliy tajribalar taqqoslandi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy manbalar hamda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy asosini aksiologiya, ijtimoiy falsafa va gender tadqiqotlariga oid konsepsiyalar tashkil etdi.

Natijalar va muhokama. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar inson qadri, gender tengligi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish tamoyillariga asoslanmoqda. Ushbu jarayonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki jamiyatda qadriyatlar tizimini takomillashtirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va inson salohiyatini ro'yobga chiqarishning muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ayollar tadbirkorligining aksiologik asoslarini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri sanaladi.

Aksiologiya qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, inson faoliyatining maqsadi, mazmuni va ijtimoiy ahamiyatini qadriyatlar tizimi orqali tushuntiradi. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning aksiologik asoslari deganda, ushbu faoliyatni rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy hamda madaniy qadriyatlar majmui tushuniladi. Yangi O'zbekiston sharoitida ayollarning iqtisodiy faolligi gender tengligi, erkin mehnat qilish huquqi, shaxsiy tashabbus, iqtisodiy mustaqillik va ijtimoiy mas'uliyat kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning muhim aksiologik omillaridan biri inson qadr-qimmatini ulug'lash tamoyilidir. So'nggi yillarda mamlakatimizda ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon ayol shaxsini jamiyat taraqqiyotining faol subyekt sifatida e'tirof etish va uning salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Natijada ayollar nafaqat oilaviy farovonlikni ta'minlashda, balki mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida ham muhim o'rin egallamoqda.

Tadbirkorlik faoliyatining aksiologik mazmunida erkinlik va mas'uliyat qadriyatlarini alohida ahamiyat kasb etadi. Tadbirkor ayol o'z biznesini tashkil etish orqali iqtisodiy mustaqillikka erishadi, o'z mehnati natijasini boshqaradi va bozor munosabatlarining faol ishtirokchisiga aylanadi. Shu bilan birga, u jamiyat oldida ma'lum mas'uliyatni ham o'z zimmasiga oladi. Yangi ish o'rinlari yaratish, aholining ehtiyojlarini qondirish, soliqlar to'lash va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali ayollar tadbirkorligi ijtimoiy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlari, imtiyozli kreditlar, kasb-hunar va biznes ko'nikmalarini rivojlantirish loyihalari mazkur sohaning aksiologik asoslarini amaliy jihatdan mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi mavqei yuksaltirish hamda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning muvaffaqiyati iqtisodiy omillar bilan bir qatorda ma'naviy va qadriy omillarga ham bog'liq.

Birinchidan, inson qadrini ulug'lash tamoyili ayollar iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlashning asosiy aksiologik mezonini hisoblanadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy erkinlik ayollarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Natijada ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei mustahkamlanadi.

Uchinchidan, gender tengligi iqtisodiy taraqqiyotning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayollarning biznes

faoliyatidagi ishtiroki oshgan sari iqtisodiy tizimning samaradorligi ham ortadi.

To'rtinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligi ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning eng maqbul modelini shakllantiradi. Bu esa iqtisodiy manfaat va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Beshinchidan, raqamli transformatsiya jarayonlari ayollar tadbirkorligining yangi rivojlanish bosqichini boshlab bermoqda. Bu esa yangi iqtisodiy tafakkur va zamonaviy qadriyatlar tizimini shakllantirmoqda.

Xulosa. Yangi O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning aksiologik asoslari inson qadrini ulug'lash, iqtisodiy erkinlik, gender tengligi, ijtimoiy adolat va milliy qadriyatlariga tayangan holda shakllanmoqda.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Ayollar tadbirkorligi iqtisodiy taraqqiyot bilan birga ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishning ham muhim omili hisoblanadi.

Inson qadri tamoyili ayollar biznesini qo'llab-quvvatlashning asosiy falsafiy asosidir.

Gender tengligi ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning muhim aksiologik sharti hisoblanadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligi barqaror tadbirkorlik madaniyatini shakllantiradi.

Raqamli iqtisodiyot ayollar tadbirkorligi rivojlanishining yangi bosqichini yuzaga keltirmoqda.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish Yangi O'zbekistonning insonparvar va inkluziv taraqqiyot modelini amalga oshirishda muhim strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Scheler M. Formalism in Ethics and Non-Formal Ethics of Values. Evanston: Northwestern University Press, 1973.
3. Sen A. Development as Freedom. New York: Alfred A. Knopf, 1999.
4. Beauvoir S. The Second Sex. New York: Vintage Books, 2011.
5. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. Toshkent: Yangi asr. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Xaydarov B., To'xtayeva M. Gender tengligi va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy asoslari // Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. 2023. №4.
7. Ismoilova D. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning institutsional omillari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2024. №2.
8. United Nations. Women's Entrepreneurship and Sustainable Development. New York, 2022.
9. World Bank. Women, Business and the Law. Washington, 2024.